

“TASDIQLAYMAN”

“Olmaliq KMK” AJ

Boshqaruv raisi

A. Xursanov

06.05.2024 y.

Diskriminatsiya va siqib chiqarishga qarshi "Olmaliq KMK" AJ SIYOSATI

“Olmaliq KMK” AJ (keyingi o‘rinlarda “Kombinat” deb yuritiladi) O‘zbekiston va Markaziy Osiyo mintaqasidagi yirik tog‘ - kon sanoati korxonalaridan biri hisoblanadi.

Mas’uliyatli ish beruvchi sifatida Kombinat nafaqat qulay mehnat sharoitlarini ta’minlashga, balki diskriminatsiya va siqib chiqarish holatlariga qarshi faol kurash olib boradi. Kombinat har bir insonning har tomonlama o‘ziga xosligi va qadr-qimmatini tan oladi va har bir xodim o‘zini himoyalangan va hurmat-e’tiborni his qilishi mumkin bo‘lgan muhitni yaratishga intiladi.

Atama va tushunchalar

Diskriminatsiya - bu inson va fuqaroning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining buzilishi, ularning jinsi, irqi, terining rangi, millati, tili, kelib chiqishi, mulki, oilasi, ijtimoiy va rasmiy maqomi, yoshi, yashash joyi, dinga munosabati va boshqa xodimning ishbilarmonlik fazilatlarini bilan bog‘liq bo‘lmagan har qanday holatlarda imtiyozlarning o‘rnatilishi.

Siqib chiqarish - bu xizmatdagi yoki lavozimdagi harakatlarning maxsus shakli: xususiy shaxslarni davlat organlari orqali yoki ularning yordami bilan amalga oshiriladigan qonuniy huquqlardan foydalanish imkoniyatidan mahrum qilish orqali ta’qib qilish.

(Xalqaro mehnat tashkilotining (XMT) bosh konferentsiyasi, 111 Konventsiya)

KOMBINAT MISSIYASI VA QADRIYATLARI

Kombinat missiyasi - diskriminatsiya va siqib chiqarish holatlaridan xoli bo‘lgan, har bir inson teng imkoniyatlarga ega bo‘lgan barqaror kelajakni yaratishdan iboratdir.

DISKRIMINATSIYA VA SIQIB CHIQARISHGA QARSHI SIYOSATNING ASOSIY TAMOYILLARI

- Ishga joylashishda, Kombinatda ish faoliyati davomida irqi, tana rangi, dini, jinsi, yoshi, nogironligi, oilaviy ahvoli, fuqaroligi yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa xususiyatlariga ko‘ra diskriminatsiya yoki siqib chiqarishsiz teng imkoniyatlarni ta’minlash;
- Har qanday shaklda: og‘zaki, yozma ravishda yoki jismoniy harakatlarda ifodalangan diskriminatsiya, tahqirlash, siqib chiqarish, ta’qib qilishlarga umuman toqat qilmaslik;

- Huquqlarni himoya qilishni kafolati va shaxsiy ma'lumotlarning maxfiylikni ta'minlash;
- Inklyuziv - korporativ madaniyatni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash;
- Siyosatning har qanday buzilishi aniqlangan taqdirda barcha salbiy oqibatlarni tezda bartaraf etish;
- Diskriminatsiya va siqib chiqarishga qarshi siyosat va ushbu holatlarni bartaraf etish xususida xodimlar va manfaatdor tomonlar bilan munosabatlarda shaffoflikni ta'minlash.

KOMBINAT MAQSADLARI

Kombinat maqsadi - har bir xodim, mijoz va manfaatdor tomonlar teng imkoniyatlarga ega bo'lgan, hurmat-e'tibor, qo'llab-quvvatlash va huquqlarining mutlaq himoyalanihi kafolatlangan, shuningdek, diskriminatsiya va siqib chiqarishning har qanday shakllaridan holi bo'lgan ishchi muhitini yaratishdan iborat.

VAZIFALARI VA MAJBURIYATLARI

“Olmaliq KMK” AJ ish faoliyatida diskriminatsiya va siqib chiqarishga qarshi o'z oldiga quyidagi vazifa va majburiyatlarni qo'yadi:

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va xalqaro standartlarga muvofiq Kombinat ishchi-xodimlarining inson huquqlariga rioya qilish;
- ish joyida diskriminatsiya va siqib chiqarishni xolatlariga yo'l qo'ymaslik;
- xodimlar soni bo'yicha ijtimoiy ko'rsatkichlarni rahbariyat o'rtasida jinsi bo'yicha, barcha xodimlar o'rtasida yoshi va o'qitish bo'yicha oshkor qilishni davom ettirish;
- nogironligi bo'lgan xodimlarning ulushi bo'yicha va ish faoliyati muntazam ravishda baholanadigan xodimlarning jinsi va toifalari bo'yicha xodimlar ulushi ko'rsatkichlarini oshkor qilish;
- barcha xodimlar uchun o'quv dasturlari va xabardorlik sessiyasini muntazam ravishda o'tkazish;
- diskriminatsiya yoki siqib chiqarish holatlariga duch kelganlar xodimlarga oid maxfiylikni ta'minlash va ularni qo'llab-quvvatlash;
- diskriminatsiya va ta'qib qilish holatlari aniqlanganda, ularni bartaraf yetish choralarni ko'rish;
- muloqot va yetakchilik namunalari orqali ish joyida hurmat va inklyuzivlik madaniyatini faol qo'llab-quvvatlash va targ'ib qilish;
- o'zgaruvchan tendensiyalar va eng yaxshi amaliyotlarga muvofiq Siyosatni doimiy ravishda takomillashtirish va qayta ko'rib chiqish.